

Bemorni ziyorat qilish odobi



16:10 / 27.01.2019 4617

Ey, farzand!

Xastani ziyorat qilish dinimizda juda muhim ibodat hisoblanadi. Xasta ziyoratiga borishingizda eshikka yaqinlashgach, yo'talib yoki tomoq qirib ichkaridagilarni tashrifdan ogoh qilish kerak. Iloji bo'lsa, xasta boshidagilar ziyoratchi ichkari kirmasidan, uning kimligini bilishlari lozim.

Ziyoratchi «Bismilloh» bilan bemorning huzuriga kirib, salom berishi, uning o'ng tomonida o'tirishi, qo'lini qo'lga olib, xastani sevintiruvchi, ko'nglini ko'taruvchi yaxshi so'zlar aytishi, ziyoratni cho'zib yubormasligi, bemordan ruxsat olib, turishi kerak.

Xasta qarindosh, do'st yoki qo'shni bo'lsa, ehtiyoji so'ralib, ketishi, xulosa qilib aytganda, xastaga iztirob emas, quvonch berib, ko'nglini olishi kerak. U yoqtiradigan yegulik olib borish juda o'rinlidir.

Qayg'u-iztirobda bo'lgan xastani so'z va har xil munosabatlar bilan xafa qilishdan qo'rqish, Allohdan shifo tilab, xayrlashish lozim.

"Ey, farzand!" kitobidan